



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 516 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharfova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'naviy intellekti rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</i>	
Islarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari	275
<i>Axmedov Nodir Sadir o'g'li</i>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<i>Begisbay Temirbayev</i>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	283
<i>Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....	286
<i>Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi.....	290
<i>Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</i>	
Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri	296
<i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	298
<i>Aygul Aralbayevna Urazimbetova</i>	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
<i>Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar	307
<i>Idiyeva Gulchehra Izomovna</i>	



Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
<i>Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
<i>Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv.....	319
<i>Laylo Baxtiyor qizi Axmedova</i>	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari.....	323
<i>Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi.....	328
<i>Samadov Sardor Sodiqovich</i>	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
<i>Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi</i>	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni.....	340
<i>Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna</i>	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili.....	344
<i>Xiloldinova Zulayho</i>	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
<i>Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li</i>	
XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida ingliz dramasi janr va uslub xususiyatlari.....	352
<i>Sherqulova Zuloyho Dilshod qizi</i>	
Биохимическая роль витаминов как кофакторов в метаболических процессах организма.....	356
<i>М. У. Джалилов</i>	
ESL/EFL (ingliz tili ikkinchi/chet til sifatida) kontekslarida lug'at boyligini rivojlantirishda loyiha asosidagi ta'lim (PBL – Project-Based Learning): tajribalar, natijalar va O'zbekiston sharoiti uchun tavsiyalar.....	359
<i>Masharibova Sayyora Ahmedovna</i>	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda kognitiv tezkorlikni rivojlantirishda multisensor yondashuvning samaradorligi.....	364
<i>Musratova Zilola</i>	
Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarning tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy ongning ahamiyati.....	367
<i>Shadibekova Dildora Fazildjanovna</i>	
O'zbekiston maktablarida ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: yuqori sinflarda eksperimental tadqiqot dizayni.....	371
<i>Ahmadjonova Diyora Dilshod qizi</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalarida umumiy kimyo kursini integrativ takomillashtirishning ilmiy metodik asoslari.....	376
<i>A. A. Xaydarov</i>	
Sport faoliyatida pedagogning o'rni.....	380
<i>Isoqov Nuriddin Halim o'g'li</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning lug'at boyligini tekshirish.....	384
<i>Mamatova Aziza Bo'riboevna, Xayrulloeva Marjona Tuychi qizi</i>	
Sharqiy mintaqalarda ajrimdan keyingi erkaklarning psixologik holati: an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasida.....	387
<i>Nazokat Xudoyqulova</i>	
Modellashtirish jarayonida "Geogebra" matematik dasturining imkoniyatlari.....	393
<i>O. Halimov, M. Jo'raqulova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik psixologik asoslari.....	398
<i>Ozoda Tolipova, Jumaboyeva Zarnigor</i>	
Shaxsda psixologik barqarorlikni rivojlantirish omillari.....	403
<i>Ozoda Tolipova</i>	
Oilaviy qo'llab-quvvatlovsiz sportchilarda yolg'izlik hissi va depressiv belgilarning paydo bo'lishi.....	407
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	

Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarda oilaning o'rni	410
Raxmatova Elmira Shavkat qizi	
Ajrashgan oilalarda voyaga yetmagan bolalarning psixologik moslashuv darajasi	413
Ro'ziyeva Zilola Fayzulla qizi	
Rinolaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan operatsiyadan oldingi davrda olib boriladigan logopedik ishlar	417
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna, Nig'matova Movluda Asatulla qizi	
Erta turmush qurish muammosining ijtimoiy psixologik asoslari	421
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi	
Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	424
G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi	
Integrativ yondashuv asosida v-vi sinflarni raqamli texnologiya vositasida o'qitishning pedagogik va psixologik mezonlari	427
Abdug'afur Avliyoqulov	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining akmeologik pozitsiyasini rivojlantirish	432
Aralova Dilafruz Dushaboy qizi	
Pedagogical Foundations for the Development of National Sports Within the Framework of Physical Education for Schoolchildren	436
Aximetov Bayrambay Kanatbayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy integrativ metodlar asosida ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning didaktik modeli	441
Boltayeva Xolida	
O'smirlarda gender infektsiya namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	446
Karimova Gulhumor Shodi qizi	
Talabalarni psixologik treninglar asosida ijtimoiylashtirish omillari	449
Omonova Oygul Qodir qizi	
Talabalarda bashoratlash ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy pedagogik masalalari	454
Rustamov Bektosh Ximmatovich	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillari	458
Saddinov Alisher Atadjanovich	
How to Teach Vocabulary in EFL Classrooms	462
Sarvinov Mirzaliyeva	
Urologiyani o'qitishda interaktiv, multimedia, raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi	465
Sayfedinov Sanjarbek Ikramovich	
Taekvondochilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish xususiyatlari	469
A. A. Nuritdinov	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda elektron korpuslar, KWIC, Word Sketch va Konkordans usullarini qo'llash	472
Amonova Mahbuba Olimovna	
Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida maktabgacha ta'limda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish	476
Asqarova Dilafruz	
Maktab ta'limida o'quvchilar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari bilan integratsiya	479
Hamzayeva Kamola Norbek qizi, Duvlanova Mashhura Fahriddin qizi	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining psixologik asoslari	483
Ibragimov Aziz Tulkunovich	
Sensor afaziyada olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni	487
Otajonova Dilrabo Ramil qizi	
Oilada shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-pedagogik tahlili	491
Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi	
Maktab o'quvchilari og'zaki nutqini metaforani o'qitish orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (5–7-sinflar misolida)	495
Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini baholash mezonlari va usullari	500
Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna	



O'quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini aniqlashda PISA topshiriqlari asosida diagnostika metodikasi	504
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
The Impact of Family, Environment and Early Childhood Development on Motivation	507
Ayakulov Ulugbek Abdugaffor ugli	
Talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	511
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	



TALABALARNING BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Hamdamova Mahzuna Tursunovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadqiqot muammosiga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari va konseptual yondashuvlari ochib berilgan. Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga qo'yilayotgan talablar tahlil qilingan. Shuningdek, boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi tamoyillar va yondashuvlarning faoliyat talablarining boshqaruv elementlari bilan o'zaro integrativ aloqadorligi hamda pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv tamoyillari, shaxsiy fazilatlar, kasbiy fazilatlar, rejalilik, bilimdonlik, intizomlilik, rag'batlantirish, ierarxiklik (ko'p pog'onlilik).

Abstract: This article, based on a comparative analysis of scientific and theoretical literature, explores the scientific-pedagogical foundations and conceptual approaches to developing students' management culture. The requirements for fostering management culture in the context of educational modernization are analyzed. Furthermore, the principles and approaches influencing the development of management culture, their integrative relationship with management elements, and the pedagogical conditions ensuring its effectiveness are discussed.

Key words: management principles, personal qualities, professional qualities, planning, knowledgeability, discipline, motivation, hierarchy (multi-level structure).

Аннотация: В данной статье на основе сравнительного анализа научно-теоретической литературы рассматриваются научно-педагогические основы и концептуальные подходы к развитию управленческой культуры студентов. Проанализированы требования, предъявляемые к развитию управленческой культуры в условиях модернизации образования. Кроме того, освещены принципы и подходы, влияющие на развитие управленческой культуры, их интегративная взаимосвязь с элементами управления и педагогическими условиями.

Ключевые слова: принципы управления, личные качества, профессиональные качества, планомерность, компетентность, дисциплинированность, стимулирование, иерархичность (многоуровневость).

KIRISH

Xalqaro tajribalar tahlilidan ma'lumki, mamlakatning Global innovatsion indeks reytingidagi o'rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, inson kapitali hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda milliy va xalqaro maydonda oliy ta'limni xalqarolashtirish, globallashuv jarayonida ta'lim sifatini oshirish, talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish va boshqarishning zamonaviy ekotizimlarini yaratish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta'lim boshqaruvini shakllantirish strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida jamiyat boshqaruvi umumiy qoida va tamoyillarning ta'lim boshqaruvida ham qo'llanishi imkoniyatini rad etmaydi. Shuning uchun ta'lim tizimini boshqarishga doir tadqiqotlarda ijtimoiy sohalarni boshqarishni o'rganishda qo'llaniladigan metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.

Ta'limni boshqarishning asosiy maqsadi – ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda boshqarishda madaniyatni ta'minlashdan iboratligi R.X. Jo'rayev va S.T. Turg'unov tomonidan ta'kidlangan. L.I. Fishman, V.S. Bezrukova, V.A. Kalney, A.N. Mayorov, T.D. Makarova ta'limni boshqarishda madaniyat funksiyalarini amalga oshirish va samarali boshqaruv maqsadlariga erishish metodlarini alohida ko'rsatgan.

Frederik Teylorning ilmiy boshqaruv nazariyasi mehnat jarayonlarini tahlil qilish va rejalashtirishning ilmiy metodlarini joriy etish orqali ish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu yondashuv ta'lim jarayonini optimallashtirishda va uning samaradorligini oshirishda qo'llanishi mumkin.

Anri Fayolning ma'muriy (administrativ) nazariyasi esa mehnat taqsimoti, hokimiyat va intizom, buyruq birligi, markazlashtirish va ierarxiya kabi boshqaruvning asosiy tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash tizimli va funksional boshqaruv tizimini yaratishga yordam beradi.

Maks Veberning byurokratik modeli rasmiylashtirilgan qoidalar va tartiblarning muhimligi, hokimiyat ierarxiyasi hamda boshqaruvda shaxsiy yondashuvning ahamiyatiga asoslangan. Ushbu model maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda tartib va prognozlikni ta'minlashda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ichida tizimli va situatsion yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Ular boshqaruv tizimining turli tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni hamda muayyan sharoit va kontekstga moslashish zarurligini ta'kidlaydi. Maktabgacha ta'lim sohasida bu yondashuvlar ta'lim tashkilotining o'ziga xos xususiyatlarini, uning ichki va tashqi muhitini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

- Ta'limni boshqarishning umumiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi: aniq maqsadga yo'naltirilganlik, rejalilik, bilimdonlik, intizomlilik, rag'batlantirish, ierarxiklik (ko'p pog'onlilik).
- Aniq maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili dasturiy-maqsadli boshqaruv mohiyati bilan belgilanib, har bir ta'limni boshqarish organi va uning har bir bo'linmasi oldiga aniq maqsad qo'yilishini nazarda tutadi.
- Rejalilik tamoyili dasturiy-maqsadli boshqaruv bilan bog'liq bo'lib, harakat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni, ish sharoitini normallashtirishni, ijrochilar o'rtasida vazifalarni taqsimlashni hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi.
- Bilimdonlik tamoyili boshqaruv obyektini chuqur bilishni va qarorlar qabul qilish jarayonida mutaxassislarning maslahatlaridan foydalanishni nazarda tutadi.
- Intizomlilik tamoyili yuqori tashkilotlar ko'rsatmalari, lavozim vazifalari, yo'riqnomalar, buyruqlar va boshqa direktiv hujjatlarning shubhasiz bajarilishini talab qiladi. Intizom darajasi ko'p jihatdan boshqaruv madaniyatini belgilaydi.
- Rag'batlantirish tamoyili moddiy va ma'naviy rag'batlar asosida mehnat faoliyatini motivatsiyalashga qaratilgan bo'lib, xodimlarga adolatli munosabatda bo'lishni ham nazarda tutadi.
- Ierarxiklik tamoyili boshqaruv mehnatining vertikal taqsimlanishini, ya'ni pastki boshqaruv darajalarining yuqori pog'onlarga bo'ysunishini taqozo etadi.

Boshqaruv tamoyillari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Masalan, rejalilik, bilimdonlik, intizom va ierarxiyaga amal qilinmasdan tashkilotning aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini ta'minlash mumkin emas. Shuningdek, bu tamoyillardan birini inkor qilish boshqaruv tizimining samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi.

Ta'lim muassasalarining boshqaruv mexanizmida ikki asosiy element o'zaro ta'sir qiladi: boshqariladigan tizim (boshqaruv obyekti) va boshqaruv tizimi (boshqaruv subyekti). Boshqaruv obyekti – ta'limni tashkil etish va uning tarkibiy bo'linmalari, pedagog kadrlar, pedagogik hamda iqtisodiy resurslar, pedagogik jarayon. Boshqaruv subyekti esa turli darajadagi menejerlar, metodistlar, pedagoglar yoki boshqaruv organlari bo'lishi mumkin. Ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbar, tarbiyachi-metodist, jamoa boshqaruv organlari, tashkiliy kengash, pedagogik kengash va vasiylik kengashlari ishtirok etadi.

Boshqaruv madaniyati nafaqat rahbarlik ko'nikmalari yig'indisi, balki kasbiy mas'uliyat, ijtimoiy ong, muloqot madaniyati va shaxsiy yetuklikni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali tushunchadir. Shu sababli uni rivojlantirish pedagogik va psixologik komponentlarning uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Bu esa ta'lim sifati va kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biridir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshqaruv madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik komponentlar – bu motivatsion, kognitiv, operatsion (amaliy) va refleksiv (tahliliy-o'zgaruvchan) yo'nalishlarda talabani ongli hamda faollikka asoslangan rivojlanish mexanizmlaridir. Har bir komponent o'zaro bog'liq va integratsiyalashgan holda talabani shaxsiy hamda kasbiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Motivatsion komponent talabani o'qish va boshqaruv faoliyatiga ichki hamda tashqi sabablar orqali rag'batlantiradi. U shaxsiy maqsadlar, ijtimoiy ehtiyojlar va kasbiy o'sishga qaratilgan istaklar bilan bog'liq bo'lib, bo'lajak rahbar shaxsida yetakchilik ehtiyojini uyg'otadi.

Kognitiv komponent boshqaruv madaniyatiga oid nazariy bilimlar majmuasini anglatadi. Ushbu komponent orqali talaba boshqaruv tamoyillari, boshqaruv psixologiyasi, menejment strategiyalari va tashkiliy mexanizmlar haqida puxta bilimga ega bo'ladi hamda rahbarlik faoliyatida ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Operatsion komponent bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tadbiiq etishga qaratilgan bo'lib, talabani seminar, loyiha, trening va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishga undaydi hamda amaliyotda olingan bilimlardan samarali foydalanishini bildiradi.

Refleksiv komponent talabani o'z faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va uni rivojlantirishga intilishini nazarda tutadi. Metakognitiv yondashuv asosida talabalar o'z bilim va harakatlarini nazorat qiladi, o'zgarishlarga ochiq bo'ladi. Ushbu komponent shaxsiy mas'uliyat, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu to'rtta komponent bir butun tizim sifatida uzviy aloqadorlikda harakat qilganda, talabani boshqaruv madaniyatida sezilarli o'sish kuzatiladi. Har bir komponent boshqasining rivojlanishiga xizmat qiladi va o'zaro ta'sirda yuqori natijaga olib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning kasbiy malakasini oshirish hamda boshqaruv madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv madaniyatini rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligi va samarali tashkil etilishiga bog'liq. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu jarayon ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv rejalarini bilan uyg'un holda olib borilganda talabalar boshqaruv madaniyatini samarali rivojlantirish uchun zamin yaratiladi.

Talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda auditoriyadan tashqari faoliyatning turli shakllari – ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, mustaqil ta'lim, loyihalar, konferensiyalar, ilmiy-amaliy anjumanlar va jamoaviy ishlar muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalar boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi hamda bu jarayon tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur tadqiqot doirasida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning texnologik modeli ishlab chiqildi. Unda to'rt asosiy bosqich belgilandi: madaniy ehtiyoj, madaniy ma'rifat, madaniy faoliyat va madaniy qiyofa. Ushbu model talabalarning madaniy va boshqaruv kompetensiyalarini izchil rivojlantirish, ularda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, o'zini-o'zi baholash va tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

1-jadval: Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning texnologik modeli

Bosqichlar	Mazmuni	Shakl, metod va usullari
Madaniy ehtiyoj	Talabalarning boshqaruv madaniyatiga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish, ularda madaniy boyliklarni o'zlashtirishga qiziqish va xohishistakni rivojlantirish	Diagnostik metodlar (anketa, savol-javob, mavzuli suhbat), debat, o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini anglash
Madaniy ma'rifat	Talabalarning madaniy- ma'rifiy tarixini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini mukammal o'zlashtirishlariga erishish	Anjuman-ma'ruza, trening, amaliy mashg'ulotlar, ko'riktanlovlar, shou-texnologiya
Madaniy faoliyat	Talabalarda tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyati hamda maqsad sari intilish kabi fazilatlar rivojlantirish	O'yinlar, turli bosqichdagi talabalarning ochiq muloqoti, ko'rsatuv va filmlar muhokamasi
Madaniy qiyofa	Talabalarda ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish va yaratish, voqeahodisalarni ekspertizadan o'tkazish salohiyati hamda voqelikka daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish	Keys-stadi (aniq vaziyatlarni hal etish), o'zaro hamkorlikdagi faoliyat, korreksion ish metodlari



Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakl va usullari haqida ham bosh qotirishni talab qiladi. Shu ma'noda, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish nafaqat qo'shimcha shakl, balki ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Bu jarayon talabalardan zamonaviy metodlarni egallashni, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, ularning imkoniyat va salohiyatini hisobga olgan holda guruh mashg'ulotlaridan individual o'qishga o'tishni talab etadi. Natijada talabalarning mustaqil bilim olishi, o'z bilimlarini hayotga tatbiq etish bo'yicha qobiliyat, ko'nikma va malakalari shakllanadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishning asosiy maqsadi – ularning o'quv faoliyatida zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir.

2-jadval: Talabalarning mustaqil ishini samarali tashkil etish chora-tadbirlari

Vazifalar	Mazmuni	Shakl, metod va usullari
Yangi ma'lumot qidirishga kerakli chora-tadbirlarni aniqlash	Talabalarning mustaqil ravishda ilmiy va amaliy ma'lumotlarni qidirish malakasini rivojlantirish, tanlangan mavzu bo'yicha asosiy manbalarni belgilash	Axborot izlash metodlari, elektron kutubxona, bibliografik sharh, ilmiy bazalar bilan ishlash
Informatsion manbalardan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida foydalanish	O'quv va ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet resurslari va boshqa axborot manbalaridan maqsadli foydalanish	Annotatsiya tayyorlash, tezislar yozish, ilmiy ma'lumotlar tahlili, manba tanlash strategiyalari
Me'yoriy hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar, o'quv adabiyotlar bilan ishlash	Fan sohasi bo'yicha mavjud hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar va ta'lim standartlarini o'rganish	Me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish, amaliy misollar bilan bog'lash
Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash	Talabalar elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanishini ta'minlash	Ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, elektron darslik va platformalar (Google Scholar, Scopus, Web of Science, ResearchGate) bilan ishlash
Ish rejalarini ekspertizaga tayyorlash, ekspert xulosasiga ko'ra ularni qayta ishlash	Mustaqil ishlar rejasini tuzish, ekspertiza jarayonidan o'tkazish va takomillashtirish	Loyiha va tadqiqot rejalarini ishlab chiqish, tahliliy yondashuv, maslahat va fikr almashish
Ishning tizimli va ijodiy bajarilishi uchun sharoit yaratish	Mustaqil ishning samaradorligini oshirish uchun optimal sharoit yaratish va ijodiy yondashuvni shakllantirish	Mustaqil ish strategiyalarini ishlab chiqish, vaqtni boshqarish, muammoli topshiriqlar va ijodiy fikrlash metodlari
Ishlab chiqilgan echimni, g'oya yoki loyihani izohlash va himoya qilish	Ilmiy va amaliy muammolarga echim berish, muhokama qilish va himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish	Prezentatsiya qilish, ilmiy munozaralar, fikr-mulohazalarni asoslash, loyiha himoyasi, SWOT-tahlil

Bu tadbirlar talabalarning mustaqil ishlarini tizimli tashkil etish va ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. U nafaqat mustaqil ishni samarali bajarishga, balki talabalarda tahlil qilish, axborotni qayta ishlash, tanqidiy fikrlash hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mobil ilovalar va elektron platformalar yaratish asosida talabalarning faoliyatini individuallashtirish;
- xalqaro ilmiy bazalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- olingan xulosalar va o'rganilgan manbalarga tahliliy yondashish orqali boshqaruv faoliyati uchun shaxsiy namunalar ishlab chiqish;
- zamonaviy texnologiya vositalaridan samarali foydalanish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish usullarini aniqlash;
- muammoning yechimiga qaratilgan tahlil, tashxis va monitoring bosqichlarini amalga oshirish hamda tegishli xulosalar chiqarish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hamdamova M.T. Talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish // Mug'allim va uzluksiz bilim berish. 2023. №4. – B. 59–63. ISSN 2181-7138.
2. Hamdamova M.T. Management culture in students' development methods // International Journal of Students in Business, Management, Economics and Strategies. ISSN (E): 2949-883X. JIF: 7.925. SJIF 2023: 5.404. – P. 62–65.
3. Hamdamova M.T. Milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish – boshqaruv faoliyatining mohiyati sifatida // International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Published online with E-Conference Series. Hosted online from Plano, Texas, USA; Italy. ISSN (E): 2835-319X. SJIF: 5.385. 15.09.2023.
4. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishga oid jahon tajribalari tahlili // Scientific Theoretical and Methodical Journal. ISSN 2992-9024 (online). 2024. №6. – B. 41–47.
5. Hamdamova M.T. Talabalarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda innovatsion menejmentning pedagogik imkoniyatlari // Scientific Theoretical and Methodical Journal. ISSN 2992-9024 (online). 2024. №5. – B. 557–564.
6. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kompetensiyasi // Maktabgacha ta'lim: zamonaviy yondashuv va xalqaro tajriba mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024. – B. 12–15.
7. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. – 76 b.
8. Hamdamova M.T. Boshqaruv psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. – 128 b.
9. Hamdamova M.T. Maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment. Darslik. Toshkent, 2024. – 371 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.